YOSH KOMPOZITORLAR IJODIDA JADIDLAR SIYMOSINING MUSIQIY-BADIIY TALQINI: “FITRAT NIDOSI” OPERA-ORATORIYASI MISOLIDA

Raximboyeva Go‘zal
Respublika musiqa va san’at oliy maktabi
“Musiqa nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada XX asr boshlarida Turkistonda ilm-ma’rifat rivojlanishi uchun hissa qo‘shgan jadid Abdurauf Fitrat obrazi yoritiladi. Yosh kompozitor G‘ayratjon Muhammadovning “Fitrat nidosi” opera-oratoriyasi musiqiy tahlil qilingan holda A.Fitrat o‘z davri va kelajak avlod uchun qilgan ishlari kompozitorlik ijodida gibrid janr opera-oratoriyadan o‘rin olgan. Kompozitorning ijodiy yondashuvi Fitrat siymosini musiqiy tasvirlar orqali estetik yoritib beradi.

Kalit so‘zlar: Kompozitor G‘ayratjon Muxammadov, “Fitrat nidosi”, opera-oratoriya, drammaturgik uslub, kompozitsion texnika, navo maqomi, zarbul qadim usuli, Buxoro mavrigisi, gibrid shakl.

Abstract

This article examines the representation of the prominent Jadid scholar Abdurauf Fitrat, who played a pivotal role in the advancement of enlightenment and education in early 20th-century Turkestan. Through a detailed musical analysis of the opera-oratorio “Fitrat’s Call” (“Fitrat Nidosi”) by the young composer Gayratjon Mukhammadov, the study demonstrates how Fitrat’s historical legacy and enduring impact on future generations are articulated within this hybrid genre. The composer’s creative methodology aesthetically delineates Fitrat’s persona through expressive musical imagery.

Keywords: Composer Gayratjon Mukhammadov, Fitrat Nidosi, opera-oratorio, dramaturgical style, compositional technique, Navo maqom, Zarbul Qadim usul, Bukhara Mavrigi, hybrid form.

Tarixiy o‘tmishni qayta idrok etish va unga xolisona baho berish — zamonaviy san’atshunoslik fanlarning dolzarb vazifalaridandir. San’at va madaniyat sohasida tarixiy xotira, xususan, jadidchilik harakati namoyandalari faoliyatiga bag‘ishlangan asarlar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Tarixiy siymolar obrazini san’at asarlarida gavdalantirish an’anaviy yo‘nalish bo‘lishiga qaramay, jadid mutafakkirlari qiyofasini musiqiy-sahnaviy janrlarda aks ettirish zamonaviy kompozitorlik ijodiyotida so‘nggi yillarning muhim yutuqlaridan biriga aylandi.

O‘zbekiston kompozitorlik maktabining yosh vakillaridan biri, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Kompozitorlik va cholg‘ulashtirish” kafedrasi magistratura bosqichi talabasi G‘ayratjon Muxammadov jadidlar obrazini va ularning ilm-fan rivojlanishi yo‘lidagi zahmatli mehnatini kompozitorlik ijodida yoritib berdi. Yosh kompozitor ustozi M. Bafoyevning yirik musiqiy-sahnaviy asarlar yaratishdagi ko‘p yillik tajribasi va kompozitsion uslubini chuqur o‘zlashtirgan holda o‘z ijodiy yo‘lini shakllantirmoqda. Aynan tarixiy siymolarga murojaat qilish va murakkab sahnaviy janrlarni tanlash — ustoz an’analarining munosib davom ettirilayotganidan dalolat beradi.

G‘. Muxammadovning professional musiqiy ta’limi Buxoro viloyati G‘ijduvon tumanidagi Bolalar musiqa va san’at maktabining fortepiano sinfidan boshlangan. Keyinchalik u Buxoro san’at kollejining “Musiqashunoslik” bo‘limida (2017–2020) hamda O‘zbekiston davlat konservatoriyasining “Kompozitorlik san’ati” kafedrasida davlat granti asosida, professor M. Bafoyev sinfida tahsil oldi.

Yosh bo‘lishiga qaramay uning ijodiy bisoti turli janrlardagi asarlarni o‘z ichiga oladi [1].

[1] Bolalar uchun asarlar: “Kompozitor bolalarga” to‘plamida nashr etilgan qo‘shiqlar turkumi (“Baxtli avlod”, “Muloyimlik ko‘chasi”, “Qish faslida o‘ynaymiz”) Kamer-cholg‘u

Xalqaro va respublika darajasidagi ilmiy-amaliy anjumanlar hamda tanlovlar laureati bo‘lgan kompozitor o‘zining bugungi kundagi eng yirik asari — “Fitrat nidosi” opera-oratoriyasining yaratilish tarixi xususida shunday deydi:

“Fitrat hayoti va ijodiga qiziqish menda azaldan shakllangan. Konservatoriyaning 4-kursida tahsil olayotgan kezlarimda tarixiy siymo obrazini yirik musiqiy-sahnaviy asarda yoritishni maqsad qildim. Bu jarayonda ustozim M. Bafoyevning murakkab sahnaviy asarlar yaratish metodikasini va ularning sahnalashtirish jarayonlarini bevosita kuzatganim muhim ahamiyat kasb etdi... Abdurauf Fitrat — musiqa va ta’lim tizimida inqilobiy yangiliklar qila olgan, ulug‘ ma’rifatparvar shaxs. Aynan uning shu qirralarini ochib berish asarning g‘oyaviy negizini tashkil qiladi”[2]

Asar librettosi O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, jurnalist va shoir Sirojiddin Ibrohim tomonidan yozilgan.

“Fitrat nidosi” — suxandon (roviy), yakkaxonlar, xor va simfonik orkestr uchun mo‘ljallangan, murakkab musiqiy arxitektonikaga ega sahnaviy asar. Uning kompozitsion jarayoni 2023-yilning yozidan 2024-yilning qishiga qadar davom etdi. Asarning bosh qahramonlari quyidagi səs (ovoz) turlariga taqsimlangan:

Fitrat (shoir, yozuvchi, jadid) — tenor;

Fayzulla Xo‘jayev (davlat arbobi) — bariton;

Fotima (Fitratning turmush o‘rtog‘i) — soprano.

---

asarlari: Fortepiano uchun pyesalar turkumi (“So‘zsiz qo‘shiq”, “Vals”, “Qalb”), yog‘och damli cholg‘ular kvarteti uchun "Buxoro manzaralari" syuitasi, torli-kamonli cholg‘ular uchun kvartet va fantaziya. Uning "Kayfiyat" nomli pyesasi Buyuk Britaniya musiqiy loyihasi ("Muzыkalnыy kaleydoskop") doirasida hamda xalqaro musiqiy portallarda (tarakanov.net) taqdim etilgan.Vokal-xor asarlari: Kattalar xori uchun yozilgan mustaqil va qayta ishlangan kompozitsiyalar (“Sevgi fasli bahor kirib keldimu?”, “Ustoz”, “Qoshi yosunmu deyin”, “Jamal Kudu”, “O mane”, “Orom-orom”), shuningdek, bolalar xori uchun yaratilgan asarlar (“Ustozim”, “O‘zbekiston”, “Onalar”, “Bahor” va boshqalar).Simfonik va ansambl asarlari: Zarbli cholg‘ular hamda “Omnibus” ansambli uchun “Shitob” (2022) va “Oqshom” (2023), katta simfonik orkestr uchun “Buxorocha” 3 qismli syuitasi, kichik simfonik orkestr uchun “Navbahor” fantaziyasi.

[2] Kompozitor G‘. Muxammadov bilan o‘tkazilgan suhbat materiallari asosida. 2025-yil 3-may.

Shuningdek, asar dramaturgiyasida roviy va xor jamoasi muhim funksional vazifani bajaradi.

Mazkur opera-oratoriya G‘. Muxammadovning diplom ishi sifatida 2024-yil yozida sahnaga olib chiqildi. Dastlabki premyera hay’at a’zolariga mo‘ljallanganligi sababli, asarning xronometraji optimallashtirilib, 40 daqiqalik hajmdan 15 daqiqalik qisqartirilgan formatda taqdim etilgan. Hozirgi kunda asarni to‘liq hajmda katta sahnada namoyish etish bo‘yicha tashkiliy va huquqiy ishlar olib borilmoqda.

“Fitrat nidosi” opera-oratoriyasining syujet chizig‘i va kompozitsion-dramaturgik uslubi tahlil etilganda, asar arxitektonikasida Roviy obrazining markaziy o‘rin tutishi namoyon bo‘ladi. Islomiy va umumsharq an’analarida “roviy” — muqaddas matnlar, hadislar va tarixiy voqealarni yetkazuvchi, xotira tashuvchisi hisoblanadi. Mazkur asarda esa u shunchaki voqeanavis emas, balki butun dramatik harakatni muvofiqlashtiruvchi epik-falsafiy markazdir. U mantiqiy ketma-ketlikni rechitativ tarzida bayon qilib, o‘tmish va bugungi kun o‘rtasida o‘ziga xos dramaturgik ko‘prik vazifasini bajaradi.

1-nomer. Roviy sahnasi. Asar muqaddimasi qalin akkordli fakturada boshlanib, fortepiano va an’anaviy cholg‘u — tanbur tembrlarining sintezi orqali Roviyning rechitativiga zamin yaratadi. Kompozitor ushbu qismda “Navo” maqomi ohanglaridan tayanch monodik asos sifatida foydalangan bo‘lib, bu asarning ilk soniyalaridanoq tinglovchini milliy-tarixiy muhitga olib kiradi.

Ulkan fojialar qurshagan onda
Umumxalq boshiga tushadi sinov.
Hamma bosh egishga moyil zamonda,
Qahramonlar chiqar bo‘lolgani dov.



Roviy o‘z nidolarida tarixning murakkab burilishlarida maydonga chiqadigan millat qahramonlarining ijtimoiy missiyasini e’lon qiladi.

Mi-minor (e-moll) tonalligida yozilgan uch qismli mazkur ariya asarning qahramonlik leyt-g‘oyasini ochib beradi. Yosh kompozitor G‘. Muxammadov o‘z ustozi M. Bafoyev maktabiga xos bo‘lgan zamonaviy kompozitsion texnikalardan, xususan, musiqiy kriptogramma (monogramma) uslubidan unumli foydalangan. Qahramon obrazini musiqiy to‘qimada gavdalantirish maqsadida Abdurauf Fitrat ismidagi harflarga mos keluvchi tovushlardan iborat maxsus leytakkord yaratilgan. Asardagi butun garmonik til va ohang rivoji aynan mana shu “Fitrat akkordi” atrofida quriladi.



Ariya to‘qimasida punktirli ritmlar va qat’iy akkordli unsurlarning ustuvorligi qahramonning bukilmas irodasini tasvirlaydi. Shuningdek, vokal

partiyasida mi notasidan sol notasiga sakrashlar Navo maqomi ohanglariga urg‘u beradi. Davrning yana bir yirik ijtimoiy-siyosiy arbobi Fayzulla Xo‘jayevning sahnaga chiqishi bilan asarda ziddiyatlar keskinlashadi. Sahnada F.Xo‘jayevning xalqni inqirozdan olib chiqish yo‘llarini izlayotgani aks ettiriladi.

E’tiborli jihati shundaki, F.Xo‘jayev va A.Fitrat dueti xor jo‘rligida yangraydi.

№4 Ф. ХЎЖАЕВ ВА ФИТРАТ



Kompozitor xordan antik fojialardagi kabi “xalq ovozi”, voqealarga xolis baho beruvchi mezon sifatida foydalangan. Mazkur sahnada qo‘llanilgan o‘zgaruvchan o‘lchovlar (polimetriya) davrning beqarorligi, xavotirli ruhiyat va ijtimoiy evrilishlar xarakterini aniq ifodalab beradi.

Navbatdagi nomerlarda marifatchilik g‘oyalari, xususan, iqtidorli yoshlarni xorijga o‘qishga yuborish masalasi ko‘tariladi. Fitratning talabalarga murojaati va yoshlarning ilm yo‘lida fido bo‘lishga qasamyodi xor ijrosida monumental tarzda jarang sochadi.

Bu nomerda ilm istagan yosh talabalarni chet elga o‘qishga yuborish kerakligi haqida so‘zlashishadi.



Keyingi nomerda yana Roviyning so‘zlari ya’ni ilm yo‘lidagi yoshlarni ustozlarining o‘git va nasihatiga quloq solishlarini so‘zlaydi.

So‘nggi nomerda Fitrat va talabalar o‘rtasidagi dialog ya’ni Fitratning yoshlarga murojaati kuylanadi. Yoshlar esa ilm yo‘lida tun-u kun ter to‘kib bilim olishga va’da berishadi. Talabalar javobini xor ijro qiladi.

Dramaturgik o‘zan biroz pasayib, asarga lirik chekinish olib kiriladi. Fotimaning ariyasida sekstola ritmik figuralaridan tuzilgan oquvchan melodika ustunlik qiladi. Ushbu ariyada melodik kuy yo‘li va sekstollarda foydalangan holda ijro qilinadi.



Fotima o‘zining ruhiy holati haqida kuylaydi. Mazkur qism qahramonning ichki kechinmalari, hadik va sadoqat tuyg‘ularini teran ochib beradi. So‘ngra yangraydigan “Fitrat va Fotima” dueti (Es-dur tonalligida, 6/8 o‘lchovida) asar lirik yo‘nalishining asosiy kulminatsion nuqtasi hisoblanadi. E’tiborli jihati shundaki,

ushbu duet libretto muallifi tomonidan A.Fitratning “Go‘zalim, bevafo gulistonim” she’ri asosida muxammas shaklida yaratilgan.



Roviy ta’kidlaganidek:

Garchi har sinovda ko‘rsatar sabot,
Eng mushkul holda ham topa olar yo‘l.
Qancha oqil bo‘lsin, farqsiz, bu hayot
Insoniy sevgiga etgusidir qul.

Lirik chekinishdan so‘ng Fayzulla Xo‘jayevning ariyasi (a-moll) va Fitratning so‘nggi ariyasi (fis-moll) asarni fojiaviy yechim sari yetaklaydi. Fitrat partiyasidagi qat’iy punktirli ritmlar uning Turkiston ozodligi yo‘lida o‘z jonini fido qilishga tayyor ekanligini namoyon etadi. Qahramonni teran mushohadali shaxs sifatida gavdalantirish maqsadida asarning ushbu qismida “Zarbul qadim” maqom usulidan foydalanilgan. Aynan shu o‘rinda vokal partiyasiga xorning kelib qo‘shilishi orqali shaxs va xalq dardi yaxlit butunlikka, qudratli sadoga aylanadi.



Final sahnasida xor partiyasi tarkibida kompozitor tomonidan yashirin tarzda qilingan Buxoro mavrigisi alluziyasini kuzatish mumkin. Milliy folklor elementi polifonik to‘qimaga shu qadar mohirona singdirilganki, uni faqat murakkab ritmik figuralar va o‘ziga xos kuy yo‘nalishi orqaligina ilg‘ab olish mumkin.



Umumiy nazariy nuqtai nazardan tahlil qilinganda, “Fitrat nidosi” asari monumental san’atning murakkab sintezi hisoblanadi. Ma’lumki, sof opera voqelikning sahnaviy harakatlar orqali ifodalanishini taqozo etsa, oratoriya ko‘proq fojiani falsafiy mushohada qilishga, konsert ijrosiga moslashgan epik janrdir. Opera-oratoriya gibrid formasi esa oratoriyaning chuqur tahliliy-falsafiy poydevorini saqlab qolgan holda, operaning dramatik ziddiyatlari va ijtimoiy-tarixiy syujet liniyalarini o‘zida birlashtiradi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, garchi opera-oratoriya janri zamonaviy musiqa madaniyatida mutlaq yangi hodisa hisoblanmasa-da, G‘. Muxammadovning yondashuvi ushbu asarning yuqori estetik va musiqiy qiymatini belgilab beradi. “Fitrat nidosi” asari nafaqat millat ozodligi yo‘lida jon fido qilgan XX asr mutafakkirlarining fojiali, ayni paytda qahramonona hayot yo‘lini tarannum etadi, balki tarixiy voqelikni bugungi kun bilan uzviy bog‘laydi. Asar musiqiy dramaturgiya tili orqali Vatan taqdiri va uning taraqqiyoti bevosita yosh avlodning

intellektual salohiyati hamda komilligiga bog‘liq ekanligini dolzarb g‘oya sifatida ilgari suradi.

Mazkur asarda namoyon bo‘lgan musiqiy janrlar sintezi zamonaviy sahnaviy san’at tarmoqlarining o‘zaro integratsiyalashuv jarayonini yaqqol aks ettiradi. Ma’lumki, mumtoz opera san’ati vizual-dramatik harakat, dinamik syujet chizig‘i va shaxslararo ijtimoiy ziddiyatlarga asoslanadi. Oratoriya esa o‘zining epik ko‘lami, voqelikni falsafiy-tahliliy umumlashtirishi hamda sahnaviy dekoratsiyalarsiz, ko‘proq konsert ijrosiga mo‘ljallanganligi bilan ajralib turadi.

Opera-oratoriya gibrid shaklining yuzaga kelishi — oratoriyaning monumental bayon uslubi va salmoqli xor polifoniyasini saqlab qolgan holda, uning tarkibiga operaga xos bo‘lgan o‘tkir ijtimoiy-tarixiy mavzularni va dramatik to‘qnashuvlarni olib kirish imkonini beradi. Shunday qilib, tahliliy qarashlarimizni tarixiy siymolar obraziga yo‘naltiruvchi ushbu musiqiy polotno XX asr boshlaridagi ziddiyatli davr manzaralarini, ilmu ma’rifatning qadr-qimmatini hamda yorug‘ kelajakka bo‘lgan ishonch mezonlarini yuksak akademik uslubda umumlashgan holda ifodalab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alimova D. Jadidchilik fenomeni. Toshkent: “Akademnashr” 2022.
2. To‘ychiyev A.X. “O‘zbek nasrida jadid obrazi talqini” dis. ...filol. Fan. Nomzodi T.: 2001.
3. Мухаммадов Ғ. “Фитрат нидоси” опера-оратория (клавир) - Тошкент, 2024.